INGLIZ TILINI O'RGATISHDA INTERAKTIV USULLARNING SAMARADORLIGI

Xusanova Barchinoy Sherali qizi
SamDChTI, Ingliz tili fakulteti,
XTA yo'nalishi 2-bosqich talabasi
Telefon raqami: +998908641172
Email: bhusanova369@gmail.com
Ilmiy rahbar: **Zubaydova Nilufar Ne'matillayevna**

Annotatsiya. Ushbu maqolada tillarni o'rgatishda pedagogik interaktiv metoddan foydalanish haqida ma'lumot berilgan. Uning o'quvchilarga bo'lgan amaliy va psixologik ijobiy jihatlari ko'rib chiqiladi. Jumladan, groupwork, warm-up mashg'ulotlari, mobil ilovalar va onlayn platformalardan foydalanishning foydalari ko'rib chiqiladi. Ta'lim jarayonini faollashtirish, o'quvchilarning til ko'nikmalarini rivojlantirish, darslarda ishtirokini oshirishda interaktiv yondashuvlarning imkoniyatlari tahlil etiladi. Bu metodlar o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish, kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda qanday ahamiyat kasb etishini, tilni oson o'rganishga yordam berishi ko'rsatiladi. Maqola tajribalar, kuzatuvlar va metodik adabiyotlarga tayanilgan holda nazariy jihatdan yozilgan.

Kalit so'zlar: ingliz tilini o'qitish, interaktiv metodlar, guruhda ishlash, warm-up faoliyatlari, mobil ilovalar, onlayn platformalar, kommunikativ kompetensiya, o'quvchilar motivatsiyasi.

EFFECTIVENESS OF INTERACTIVE METHODS IN TEACHING ENGLISH

Xusanova Barchinoy Sherali qizi
2nd-year student at the Samarkand State Institute of Foreign Languages

Abstract: This article discusses the use of interactive teaching methods in language education and examines their practical and psychological benefits for learners. In particular, it explores the advantages of group work, warm-up activities, mobile applications, and online platforms. The article analyzes the potential of interactive approaches to make the learning process more engaging, develop students' language skills, and increase their participation in lessons. It also highlights the role of these methods in improving learners' self-confidence, encouraging independent thinking, developing communicative competence, and facilitating language learning. The article is

theoretical in nature and is based on an analysis of scientific and methodological literature.

Keywords: English language teaching, interactive methods, group work, warm-up activities, mobile applications, online platforms, communicative competence, learner motivation.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ПРЕПОДАВАНИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Хусанова Барчиной Шерали кизи
Студент 2-го курса Самаркандского государственного института иностранных языков.

Аннотация: В данной статье рассматривается использование интерактивных методов обучения иностранным языкам и анализируются их практические и психологические преимущества для учащихся. В частности, изучаются преимущества групповой работы, разминочных упражнений (warm-up activities), мобильных приложений и онлайн-платформ. Анализируются возможности интерактивного подхода в активизации учебного процесса, развитии языковых навыков учащихся и повышении их активности на занятиях. Также рассматривается роль данных методов в повышении уверенности учащихся в себе, развитии самостоятельного мышления, формировании коммуникативной компетенции и облегчении процесса изучения языка. Статья носит теоретический характер и основана на анализе научной и методической литературы.

Ключевые слова: обучение английскому языку, интерактивные методы, групповая работа, разминочные упражнения, мобильные приложения, онлайн-платформы, коммуникативная компетенция, мотивация учащихся.

Kirish: Bugunki kunda mamlakatimizda tillarni o’rganishga bo’lgan talab keskin oshmoqda va buning uchun kerakli shart-sharoitlar bilan ta’minlanmoqda. Shu bilan birga aynan til o’rgatuvchi o’qtuvchilardan yetarlicha malaka talab qilinmoqda. Har bir pedagog o’quvchilarga mavzuni tushuntirish davomida ularni mavzuga nisbatan qiziqtira olish, faqat eshitibgina emas, balki o’yinlar, metodlar orqali faol ishtirok ettira olish qobiliyatlari ham bo’lishi lozim. Interaktiv metodlar o’quvchilarga dars davomida faol qatnashishga, muhokama va raqobat orqali tez o’rganish va eslab qolishga, bundan tashqari guruh bilan ishlash va muammolarni hal qilish ko’nikmalarini rivojlanishiga yordam beradi. An’anaviy o‘qitish usullarida asosiy e’tibor ko‘proq o‘qituvchi faoliyatiga qaratilgan bo‘lsa, zamonaviy interaktiv metodlarda o’quvchi ta’lim jarayonining faol subyekti sifatida namoyon bo‘ladi. Interaktive metodlar nafaqat maktabning turli mashg’ulot turlari uchun, balki til kurslari uchun ham samarali yo’l

hisoblanadi, chunki ushbu metodlar orqali o'qituvchi va o'quvchi orasidagi hamkorlik orqali mavzuni yaxshiroq esda qolishiga sababchi bo'ladi. Ular nafaqat til qoidalarini, balki tilni haqiqiy hayotda qanday to'g'ri qo'llanishini ham o'rgatadi.

2013-2014-yildan boshlab 1-sinflarga ham ingliz tili darslari o'tila boshlandi. Shu kundan boshlab maktablarda va oliy o'quv yurtlarida tillarni o'qitish keng yo'lga qo'yildi. Yoshlar o'rtasida chet tillarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlari ortib borayotganligi sababli tillarni o'qitish bo'yicha zamonaviy va samarali pedagogik metodlar mavjud.

Quyida biz bir nechta interaktive o'yin turlarini tahlil qilib o'tamiz.

Kollaborativ metod (group work)- o'quvchilar vazifalarni yolg'iz emas, balki guruh bo'lib ishlashlari lozim. Bu bilan o'quvchilar o'zaro ma'lumot almashish orqali muammoni muhokama qilish va uni birga yechishlari talab qilinadi.

Tillarni taqlid qilish (Imitative Learning)- ingliz tilidagi audio va video materiallarni tinglash va uni qaytarish orqali olib boriladi. Bu orqali o'quvchilarning eshitish, gapirish va hamda talaffuz qilish qobiliyatlari rivojlanishiga yordam beradi. Texnalogiya mobil ilovalar va onlayn platformalar orqali- tillarni ilovalar va saytlar bilan ham qiziqarli qila olish mumkin. Masalan, saytlardan: Bamboozle, Quizlet, BBC learning English va boshqalar, ilovalardan: Duolingo, Memrise, Speakpall, Babbel kabilar, ular o'quvchilarga darsdan tashqari o'zlarini rivojlantirishlari uchun ham yordam bera oladi. Dars davomida esa shu kabi onlayn saytlar ,ayniqsa, yosh bolalar uchun juda qiziqqarli ko'rinadi va faol qatnashishga harakat qiladilar.

Muammoli ta'lim (problem-based learning)- talabalarni mustaqil fikrlashga undaydi. Ushbu metodda talabalar muammoli vaziyatni tahlil qilish, yechim izlash va o'z fikrlarini asoslash orqali tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Warm up activities- ushbu interactive metod asosan dars boshlanmasidan oldin qo'llanilib, bolalarni har xil kichik o'yinlar orqali darsga tayyorlab olish asosiy maqsad hisoblanadi. Ushbu o'yinlar mavzuga aloqador yoxud aloqasi bo'lmasligi ham mumkin. "Brainstorming", "Case Study", "Role Play", "Debate", "Think–Pair–Share", "Jigsaw", bularga misol bo'la oladi. Ushbu loyiha asosida o'qitish (Project-Based Learning) muammoli vaziyatlar asosidagi topshiriqlar o'quvchilarni real kommunikativ vaziyatlarga tayyorlashda yuqori samaradorlikni namoyon etadi.

Interaktiv o'yinlar psixologik jihatdan til o'rganuvchilariga ta'sir o'tkaza oladi, masalan motivatsiya anchagina oshadi. Chunki ushbu metodda o'qituvchidan ko'ra o'quvchining roli kattaroq o'rin egallaydi. Bu esa bolalarning erkin fikrlab ularni yetkaza olish, guruh ichida erkin so'zlasha olish va ularni ham eshita olish, xato qilishdan qo'rqmaslik imkoniyatini beradi. Shunday qilib bolalarda xorijiy tillarni o'rganishda kelib chiqadigan kommunikativ muammolarni va til xavotirini (foreign language anxiety) kamaytiradi va o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi. 2020-yilgi Topçu Gedikli va Başbay[4] tomonidan olib

[4] Turkiya Milliy ta'lim vazirligi tizimida, Istanbuldagi Küçükçekmece Anadolu litseyida faoliyat yuritgan shaxs.

borilgan 9 nafar talabalar o'rtasida olti haftalik tadqiqotda guruhli faoliyatlar talabalarning ingliz tilida gapirish bilan bog'liq xavotirini kamaytirish va nutq ko'nikmasiga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish bilan bog'liq natijalarni ko'rsatgan.

Interaktiv o'yinlarni tashkillashtirishda o'qituvchi malakali bo'lishi lozim. U darsda qo'llamoqchi bo'lgan metodi dars mavzusiga aloqador bo'lishi, bolalarning til darajasi, o'quvchilar soni, chegaralangan vaqt miqdorini va topshiriqning murakkablilik darajasini hisobga olishi o'qituvchiga har bir bola bilan individual ishlash, ularda tilga bo'lgan ishonch va pozitivliligni oshirishga ko'maklasha oladi. Ayrim hollarda auditoriya katta bo'ladi va ba'zi metodlarda o'quvchilar soni cheklangan, bu esa darsda hamma faol qatnasha olmasligiga sabab bo'ladi.

Xulosa: Til faqat grammatik qoidalar va lug'at zaxirasini yod olish emas, balki muloqot vositasi sifatida faol qo'llanilishi kerak. Shunday sharoitda interaktiv metodlarning o'rni tobora muhimlashib bormoqda. Bu metodlar orqali o'qituvchi darsda muhit yaratadi, o'quvchi esa mustaqil fikr yuritadi, tilni amaliy qo'llaydi, savol beradi va javob topadi. Bu esa tilni "tashqi" emas, "ichki" vosita sifatida o'zlashtirishga xizmat qiladi.Bu ayniqsa, boshlang'ich, o'rta va kasb-hunar ta'limi bosqichlarida va hamma til o'rganuvchilarining tilga bo'lgan qiziqishini oshiradi, faolligini kuchaytiradi va real kommunikativ vaziyatlarda o'z fikrini erkin ifoda etish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hamroyeva Muxlisa Ingliz tilini o'qitishda zamonaviy pedagogik metodlar va texnalogiyalar nomli maqolasi https://inlibrary.uz/index.php/tsru/article/view/60599/60994

2. Narzullayeva Feruza Xorijiy til va adabiyoti talabalarni chet tiliga o'qitishda interactive metodlarning pedagogic-psixologik usullari nomli maqolasi https://journals-kokandsu.uz/index.php/kspi/article/view/4536/4462

3. Raxmidinova Shahrizoda Ingliz tilini o'rgatishda interactive metodlardan foydalanishning samaradorligi nomli maqolasi https://inlibrary.uz/index.php/scin/article/view/92474/94121

4. Quizlet https://quizlet.com/784293758/ielts-beginner-computers-and-technology-vocabulary-set-1-flash-cards?funnelUUID=130e93c7-eaf9-40b1-aa38-a44a7b7599a3

5. Topçu Gedikli va Başbay https://dergipark.org.tr/en/download/article-file/860289?utm_source=chatgpt.com